

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

**SHERMUHAMMADOV B.SH.**  
**AXMADALIYEV Y.I.**

|                               |                                   |                                 |                                                              |
|-------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston)    | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof. | ZUOGANG PENG (Xitoy)            | Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof                    |
| ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof  | PANASYUK M (Rossiya)            | Qozon federal universiteti, g.f.d., prof                     |
| A'ZAMOV A (O'zbekiston)       | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof  | VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)    | Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof         |
| SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)  | O'zR FA t.f.d., prof              | SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)   | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof |
| TURAYEV A. (O'zbekiston)      | O'zRFA akademigi, k-b.f.d., prof  | ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya) | Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq. |
| RASHIDOVA S. (O'zbekiston)    | O'zRFA k.f.d., prof               | SCOTT LEVI (AQSH)               | Ohio State University, PhD, prof                             |
| ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)   | OshDU k.f.n., dots                | AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston) | Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti          |
| TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)    | O'zRFA akademigi, b.f.d., prof    | SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)    | Ataturk University                                           |
| G'ULOMOV S. (O'zbekiston)     | O'zRFA akademigi, i.f.d, prof     | SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston) | E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti         |
| JUMABEKOVA B (Qozog'iston)    | b.f.d., prof                      |                                 |                                                              |

## Tahririyat kengashi

| PEDAGOGIKA BO'YICHA |                                        |               |                              |
|---------------------|----------------------------------------|---------------|------------------------------|
| EGAMBERDIYEVA T.    | FarDU, p.f.d., prof.                   | DAVLYATOVA G. | FarDU, p.f.n., dots.         |
| XONKELDIYEV Sh.     | FarDU, p.f.d., prof.                   | BAYDJANOV B.  | FarDU, p.f.n., dots.         |
| TOJIBOYEVA H.       | O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc) | ABBASOVA N.   | FarDU, p.f.f.d., dots.       |
| QURBONOVA B.        | FarDU, p.f.d. (DSc), prof              | GOFUROVA N.   | FarDU, p.f.f.d.              |
| O'RINOVA N.         | FarDU, p.f.n., dots.                   | URAIMOV S.    | FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc) |

**Bo'lim boshlog'i:** Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

**Texnik muharrirlar:** Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:** Mahmudov F.  
O'rinboyev I.

### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: [Journanal.fdu.uz](http://Journanal.fdu.uz)

|                                                                                                                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhhammadov, Q.B.Qurbonova</b><br>Oliy ta'limda talabalarni ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....                                                                          | 5   |
| <b>T.Эгамбердиева, С.Юлдашев</b><br>Исторические корни народных игр .....                                                                                                                                            | 11  |
| <b>A.A.Тураханов</b><br>Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных<br>руководителей к негативным идеям и социальным угрозам .....                                                           | 17  |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>Advanced mnemonic techniques for students in language courses .....                                                                                                                           | 23  |
| <b>A.N.Qosimov</b><br>O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-<br>pedagogik asoslari .....                                                                                    | 30  |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in<br>reading and writing at Fergana State University .....                                   | 36  |
| <b>M.M. Yuldashov</b><br>O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi .....                                                                                                      | 42  |
| <b>Sh.A.Ibragimova</b><br>Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni<br>rivojlanish genezisi .....                                                                       | 46  |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>Teaching english through film: a contextual approach to language learning .....                                                                                                               | 52  |
| <b>D.A.Abduraxmonov</b><br>Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni<br>rivojlantirish bosqichlari .....                                                                       | 56  |
| <b>J.V.Solijonov</b><br>Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....                                                                                                  | 59  |
| <b>N.T.Mirzamaxmudova</b><br>Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini<br>rivojlantirishning metodologik jihatlari .....                                           | 62  |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in<br>higher education institutions .....                                                          | 66  |
| <b>D.A.Maxmudova</b><br>The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools .....                                                                                                | 70  |
| <b>D.O.Gulamova</b><br>Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati .....                                                                                               | 76  |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression .....                                                                                                    | 82  |
| <b>B.M.Artikova</b><br>Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher<br>education institutions (based on the example of the building and construction specialty) ..... | 89  |
| <b>M.N.Haytboyeva</b><br>"Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida<br>o'qitish va o'rganishni rivojlantirish" .....                                                          | 93  |
| <b>N.U.Jamalova</b><br>Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi .....                                                                                                       | 97  |
| <b>Sh.R.Temirov</b><br>Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika<br>mashg'ulotlarining samaradorligi .....                                                     | 101 |
| <b>N.R.Gafurova</b><br>The impact of online learning platforms on school education .....                                                                                                                             | 108 |



UO‘K:371+372.862(075)

**OLIY TA'LIMDA TALABALARNI IJTIMOY HAMKORLIKKA TAYYORLASH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К  
СОЦИАЛЬНОМУ СОТРУДНИЧЕСТВУ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ****IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR SOCIAL  
COOPERATION IN HIGHER EDUCATION****Bahodir Shermuhammadovich Shermuhammadov<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor**Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor**Annotatsiya**

So'nggi yillarda ta'limga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida texnologik yondashuvni qaror toptirish muammosi tadqiq etilmoqda. Shu qatorda ta'limning belgilangan nazariyasi va amaliyoti barcha ta'lim muassasasi faoliyatining umumiy ilmiy-metodik asosda takomillashtirish kerakligini alohida ko'rsatadi.

Ayrim ilmiy-tadqiqot ishlarida "hamkorlik", "sharikchilik", "muvofiglashish", "birgalikdagi harakat" tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida ishlatib kelingan. Bizning fikrimizcha, "hamkorlik" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi samarali faoliyatni taqozo etadi. Ushbu maqolada hamkorlik tushunchasi talqini, hamkorlik pedagogikasining asosi, oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, talabalarni ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasi xususida fikr bildirilgan.

**Аннотация**

В последние годы под влиянием новых подходов к образованию изучается вопрос утверждения технологического подхода как важного показателя совершенствования деятельности образовательных учреждений. В этом контексте теоретические и практические основы образования указывают на необходимость совершенствования деятельности всех образовательных учреждений на общей научно-методической основе.

В некоторых научных исследованиях термины «сотрудничество», «партнёрство», «координация» и «совместные действия» используются как синонимы. По нашему мнению, понятие «сотрудничество» является более широким и предполагает совместную эффективную деятельность для достижения общих целей. В данной статье рассматриваются толкование понятия сотрудничества, основы педагогики сотрудничества, развитие у студентов высших учебных заведений навыков социальной кооперации, а также методика подготовки студентов к социальной кооперации.

**Abstract**

In recent years, under the influence of new approaches to education, the issue of establishing a technological approach as an essential indicator of improving the activities of educational institutions has been studied. In this context, the designated theory and practice of education emphasize the need to improve the activities of all educational institutions on a common scientific and methodological basis.

In some scientific research, the terms "cooperation," "partnership," "coordination," and "joint action" have been used as synonyms. In our opinion, the concept of "cooperation" is broader and implies joint effective activity to achieve common goals. This article discusses the interpretation of the concept of cooperation, the foundations of cooperative pedagogy, the development of university students' skills in social cooperation, and the methodology for preparing students for social cooperation.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik pedagogikasi, ijtimoiy hamkorlik, simulyatsiya, interaktiv metodlar va seminarlar, volontyorlik faoliyati, mentorlik tizimi, kross-kultural o'rganish, kollaborativ o'qitish usullari, feedback, o'qituvchi hamda talabani birgalikdagi faoliyati, hamkorlikning pedagogik mohiyati.

**Ключевые слова:** педагогика сотрудничества, социальное сотрудничество, симуляция, интерактивные методы и семинары, волонтерская деятельность, менторская система, кросс-культурное обучение, методы совместного обучения, обратная связь, совместная деятельность преподавателя и студента, педагогическая сущность сотрудничества.

**Key words:** cooperative pedagogy, social cooperation, simulation, interactive methods and seminars, volunteering, mentoring system, cross-cultural learning, collaborative teaching methods, feedback, joint activities of teachers and students, pedagogical essence of cooperation.

### KIRISH

Bugungi kunga kelib, hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo'lmoqda:

birinchidan, ta'lim tizimida yangi va keng ma'noda ijtimoiy hamda pedagogik jarayonlarning jadal sur'atlarda amalga oshirilayotganligi;

ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (o'qituvchi va talabalarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari; o'qituvchilarning talabalar bilan insonparvar va do'stona munosabatni tashkil etish malakalarining yetarli emasligi va h.k.);

uchinchidan, talabalarning ta'limiy yangi innovatsiyalarga nisbatan katta ehtiyoj sezilishi.

Hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonida talabalarning bir-biri bilan, o'qituvchilar va boshqa ta'lim ishtirokchilari bilan hamkorlikda ishlashini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ta'limning samaradorligini oshirish, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy kompetensiyalarini oshirish zarurati ortib bormoqda. Oliy ta'limda talabalarni ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash orqali:

1. **Talabalarning ijtimoiy rivojlanishi:** Hamkorlik pedagogikasi talabalarga bir-birlari bilan muvofiq tarzda jamoaviy ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga motivatsiya berishni o'rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy kompetensiyalarini oshiradi.

2. **Kreativ fikrlash va muammoni hal qilish:** Jamoaviy faoliyat talabalarda yangi g'oyalar va yechimlar yaratishga turtki bo'ladi. Har bir talaba o'z fikrini aytish va jamoa bilan maslahatlashish orqali kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

3. **Ta'lim samaradorligi:** Hamkorlikda ishlash orqali talabalar bir-birlaridan o'rganishadi, turli yondashuvlar va nuqtai nazarlarni qabul qilishadi, bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

4. **Ta'limda tenglik va inklyuzivlik:** Hamkorlik pedagogikasi barcha talabalarni bir xil sharoitda o'qitishga yordam beradi, ularni jamoaviy ishlashga undaydi va turli imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

5. **Yangi pedagogik yondashuvlar:** Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlar, masalan, loyiha asosida o'qitish va boshqa metodikalar keng qo'llanilmoqda. Bu usullar hamkorlikda ishlashni, talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Demak, hamkorlikda o'qitish ta'limda talabalarning qiziqishini oshirish, o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyatni kuchaytirish kabi ahamiyatli omillarga asoslanadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida hamkorlikni samarali tashkil etish uchun pedagoglar o'z ustida tinmay izlanish olib borishlari shart.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik lug'atda hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta'lim beruvchi va oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot asosida samarali o'rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari, vositalarini ko'rsatib beradigan fan [1], sifatida talqin etiladi.

Jahon pedagogikasida hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlardan foydalanish masalasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.Arshinov, M.Boguslavskiy, V.Budanov, V.Vinenko, L.Zorina, V.Ignatova, S.Kapitsa, E.Knyazeva, G.Malinetskiy, V.Matkin, L.Novikova, E.Pugacheva, N.Talanchuk, D.Trubetskov, O.Fedorov, Yu.Sharonin, A.Bochkarev, E.Kopilova, V.Petrova, O.Gataulina, G.Sumina, L.V.Surchalova, Yu.V.Talagaev, R.Jonson, Sh.Sharon, R.Gane, Dj.Brigs, Levi Strosslarning tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitishning afzalliklari, o'qituvchi-talaba hamkorligini tashkil etishning yetakchi g'oyalari o'z aksini topgan.

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaoligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Azizxodjayeva[4], J.Yo'ldoshev[12], R.Safarova[12], B.Xodjayev[17], Sh.Abdullayeva[2], N.Dilova[8] singari olimlar tomonidan hamkorlik

## PEDAGOGIKA

pedagogikasi, talabalarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (N.Dejnikova, I.Pervin[7], V.Dyachenko, D.Djonson, R.Djonson[9], R.Slavin[16], va boshqalar) shuni ko'rsatdiki, hamkorlik guruhiy va jamoaviy ish shakllarini tashkil etishda subyektlarning o'zaro birgalikdagi faoliyatda qo'yilgan maqsadga samarali erishishini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida hamkorlar o'zaro yordam, faol hamkorlik tamoyillari asosida o'quv-bilish faoliyatida o'zaro birgalikda harakatlanishadi. Shuning uchun hamkorlik o'zaro javobgarlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro samimiyligni talab etadi. Faol hamkorlik natijasida talabalarda ta'lim-tarbiya jarayonida ongli va faol ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-maishiy vazifalarni hal etish malakalari tarkib topadi.

Oliy ta'limda talabalarni ijtimoiy hamkorlikka tayyorlashda hamkorlikda qo'llaniladigan metodik usullar muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon talabalarni nafaqat kasbiy bilimlarga ega bo'lish, balki jamiyatda samarali ishlash va ijtimoiy muammolarga qarshi tura olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilganligiga ko'ra ayrim metodik usullarni keltirib o'tish mumkin:

### **1. Loyihalar va guruhli ishlash (Cooperative Learning)**

Loyihalar va guruhli ishlash ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning samarali usulidir. Bunda talabalar birgalikda ish olib borishadi, bu ularni bir-biriga yordam berish, fikr almashish va muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Bunday metod, shuningdek, liderlik va guruhdagi rollarni taqsimlash qobiliyatini oshiradi.

### **2. Simulyatsiyalar va o'yinlar**

Ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi mumkin. Masalan, "rol o'ynash" (role play) o'yinlari yoki biznes simulyatsiyalari talabalarni muloqot qilish, kelishuvlarga erishish va turli ijtimoiy holatlarga javob berish ko'nikmalarini o'rgatadi.

### **3. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning)**

Muammoli ta'limda talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi. Bu metod talabalarni tanqidiy fikrlash, jamoa bilan ishlash, va ijtimoiy masalalarni o'rganishga tayyorlashga yordam beradi. Talabalar o'zlari mustaqil ravishda muammoni aniqlab, uni hal etish yo'llarini izlaydilar.

### **4. Interaktiv metodlar va seminarlar**

Interaktiv darslar va seminarlar talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalarning fikrlarini tinglash va yangi g'oyalar yaratishda yordam beradi. Bunday metod talabalarni o'zaro fikr almashish va ijtimoiy muammolarni tahlil qilishga undaydi.

### **5. Volontyorlik faoliyati**

Talabalarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish, ularga real ijtimoiy muammolarni tushunishga yordam beradi. Volontyorlik faoliyati talabalarni jamiyatga hissalarini qo'shishga va boshqalarga yordam berish zaruratini tushunishga o'rgatadi.

### **6. Mentorlik tizimi**

Mentorlik orqali talabalar tajribali mutaxassislar yoki o'qituvchilar bilan ishlashadi, bu esa ularning ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi mentor talabalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularni ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

### **7. Kross-kultural o'rganish (Cross-cultural learning)**

Turli madaniyatlarni o'rganish va ularni bir-biriga qarshi qo'yish ijtimoiy hamkorlikda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limda talabalarni turli millat va madaniyatlarni o'rganish, ular bilan integratsiyalashishga, boshqalar bilan samarali ishlashga o'rgatish muhim hisoblanadi.

### **8. Shaxsiy va jamoaviy baholash**

Talabalarga o'z yutuqlari va kamchiliklarini baholash imkoniyatini berish, shuningdek, guruhning umumiy natijasini baholash ularning mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bu metod talabalarni o'zaro yordam, shaxsiy yutuqlarini baholash va jamoaviy natijalarni ko'rish orqali o'zlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning barchasi talabalarni ijtimoiy hamkorlikka tayyorlashning muhim metodik usullaridir. Ushbu metodlar orqali talabalar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, balki ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllanadilar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hamkorlik tushunchasi talqini, hamkorlik pedagogikasining asosi, oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish xususida nazariy muammolarini aniqlash va ularni tahlil qilish jarayonida tasniflash, tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy, transformatsiya metodlardan foydalanilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlik pedagogikasi – an'anaviy o'qitishdan farq qilib, talaba bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. "Men" o'rniga "Biz", ya'ni hamkorlikda – "subyekt" – "subyekt" munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. "Hamkorlikda ishlash" tamoyili talaba shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O'quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi talaba shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim-tarbiya jarayonida ilqlik, hamkorlik, o'z xohish-irodasini yagona maqsadga – ta'lim olishga yo'naltiradi.

N.Dilovanning fikricha hamkorlikka asoslangan pedagogika o'qituvchi hamda talaba birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi. Yangi maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad – talabalar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat. Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalanadi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar shular jumlasidandir[8].

"Hamkorlik" tushunchasi zamonaviy insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogikaning yetakchi tushunchasini o'zida ifoda etadi. Hamkorlik – eng umumiy ma'noda kishilarning mehnatdagi o'zaro harakati, ya'ni ularning birgalikdagi faoliyatidir.

G.A.Sukermanning ta'kidlashicha, hamkorlikning mohiyati barcha ishtirokchilarning o'zaro birgalikda harakatlanishida o'z ifodasini topadi, u orqali individual va birgalikdagi faoliyat maqsadiga erishish imkoniyati yuzaga keladi[19].

Hamkorlik o'zida birgalikdagi faoliyatning asosiy belgilarini aks ettiradi. Bularga maqsadning birligi, ishtirokchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashi, yaxlit jarayonni alohida o'zaro aloqador qismlarga taqsimlanishi, ularning ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi, individual faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqaralishi, yagona yakuniy natijaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi[14].

O'zaro birgalikdagi harakat talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi va namoyon etishini faollashtirishning asosiy usullaridan biridir. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida talabalarning qobiliyati va imkoniyatlari yanada ko'proq namoyon bo'ladi. Bir-birini to'ldirib borish orqali ular rivojlanishning sifat jihatdan yangi darajasiga erishadi.

D.B.Elkonin va V.V.Davidovlar o'z ishida o'zaro munosabatlarning barcha shakllari umumiy xarakter kasb etishini va bir paytning o'zida guruhviy emotsional qo'llab-quvvatlashda aks etuvchi kichik guruhlarda ishlashni talab etishini tahlil qilgan [6].

A.A.Ivin o'zining ilmiy tadqiqotlarida munosabatlaridan farqli ravishda tengdoshlar bilan munosabat – bu eng avvalo, o'zaro tenglikning ta'minlanishi ekanligini alohida e'tirof etadi. Tengdoshlar bilan muloqot talabaga o'zaro teng huquqli muloqotni, fikrlarga, boshqa kishilarning erkinligi va xohish-istaklaridan mustaqil ravishda ularning so'zlari va xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatni taqdim etadi. Buning uchun boshqa kishilarning nuqtaiy nazarini ko'ra olish, baholash, qabul qilish yoki qilmaslik, asosiysi, boshqalarnikidan farqli ravishda o'zining shaxsiy nuqtai nazarini, qarashlariga egalik va uni himoya qilish ko'nikmasi tarkib toptirilishi lozim [11].

Talaba hayotining tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik to'la-to'kis amalga oshmaydigan sohosi o'quv faoliyati bilan bog'liq. Ular uchun sinfxonada o'z joyida o'tirish, erkin suhbat qurish, mavzuni o'rganish jarayonida bir-birini chalg'itish taqiqlanadi, dars jarayonida bir-biriga yordam



berish mumkin emas, ko'pincha mazkur holat "bir-biriga aytib turish" sifatida baholanadi. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim-tarbiya jarayonida ular tengdoshlari jamoasi, aniqrog'i, normal rivojlanishning muhim omilidan mahrum etiladi. Talabalar dars jarayonida muloqot qilishmaydi, biror bir maslahat yoki o'zaro yordam berish uchun bir-biriga bevosita murojaat qilish o'qituvchi vositasiz kamdan kam holatda uchraydi. Bolalar birga o'qishadi, lekin ular bir-biri bilan hamkorlik qilishmaydi[5].

Talabalarining hamkorlikdagi faoliyatini pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq tashkil etish bola shaxsini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Shaxs va faoliyat subyekti sifatida insonning oliy ta'lim davridagi rivoji quyidagi jihatlarni hisobga olishni talab etadi: 1) intellektni rivojlantirish; 2) emotsional sohani rivojlantirish; 3) stresslarga barqarorlikni tarkib toptirish; 4) o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish; 6) olamga ijobiy munosabat va boshqalarni qabul qilishni rivojlantirish; 7) o'z-o'zini takomillashtirish va rivojlantirishga motivatsiya hosil qilish.

Mazkur holatda o'quv motivatsiyasini rag'batlash o'z-o'zini rivojlantirishning muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi. (A.A.Rean va Ya.L.Kolominskiy)[13].

I.A.Zimnyaya tomonidan tavsif etilgan "hamkorlik" tushunchasi orqali bolalar va kattalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati, o'zaro bir-birini tushunish orqali jipslashish, bir-biriga ma'naviy yaqinlik, faoliyatni amalga oshishi va natijalarining birgalikdagi tahlil etilishi tushuniladi[10].

Demak, yuqoridagi olimlarning fikriga taya'nib oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

#### 1. Ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati va talabalarga ta'siri:

Ijtimoiy hamkorlik nafaqat muhim ko'nikma, balki talabalarining shaxsiy va professional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar ijtimoiy hamkorlik orqali o'zaro anglashuv, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Ijtimoiy hamkorlik talabalarga turli fikrlar, qarashlar va madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

#### 2. Ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari:

**Amaliy mashg'ulotlar:** Talabalarga turli guruhlarda ishlash, muammolarni hal qilish va birgalikda qarorlar qabul qilishni o'rgatish. Bu guruh ishlarida faol ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

**Seminar va treninglar:** Talabalar uchun ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish bo'yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etish, shu bilan birga o'zaro tushunish va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Kollaborativ o'qitish usullari:** Asosan jamoaviy, hamkorlikda o'qitish metodlarini joriy etish, masalan, guruh loyihalari, bahslar, rolli o'yinlar.

#### 3. Ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatishning amaliyotdagi o'rne:

**Jamoaviy ishlash ko'nikmalari:** Talabalarga jamoaviy ishlashda liderlik, muloqot, hamkorlik qilish, boshqalarni tinglash va jamoada muvozanatni saqlashni o'rgatish.

**Ijtimoiy tarmoq va do'stlikni rivojlantirish:** Ijtimoiy tarmoq orqali talabalarga ijtimoiy va professional tarmoq qurish imkoniyatlarini yaratish, bu esa kelajakdagi karyera imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### 4. Tadqiqotlar va o'zaro aloqalarni kuchaytirish:

**Empirik tadqiqotlar:** Talabalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik darajasini o'rganish va bu jarayondagi muammolarni hal etish usullarini tadqiq qilish.

**G'oyalar almashish va feedback olish:** Talabalar o'rtasida o'zaro fikr almashish, hamkorlikni samarali qilish uchun muntazam feedback to'plash.

#### 5. Boshqaruv va strategik yondashuvlar:

**Strategik yondashuvlar:** Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu universitetning ijtimoiy va akademik muhitini yaxshilashga yordam beradi.

**Muvofiqlashtirish va motivatsiya:** Talabalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish uchun muvofiqlashtirish va motivatsiya tizimlarini yaratish.



Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, pedagogik jarayoning hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, o'qituvchi va talabalar, shuningdek, ta'limning barcha ishtirokchilari o'rtasida o'zaro aloqalar va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarova O., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti– Toshkent: 2014. 67- b.
2. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
4. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
5. Арефьева О.М. Особенности формирования коммуникативных универсальных учебных умений младших школьников / О.М.Арефьева // Начальная школа плюс До и После. –2015. - №2. – С.28.
6. Давыдов, В.В. Младший школьник как субъект учебной деятельности / В.В. Давыдов, В.И. Слободчиков, Г.И. Цукерман // Вопросы психологии. – 2010.- № 3-4. – С.23.
7. Дежникова Н.С., Первин И.Б. Товарическая взаимопомощь школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 112 с.
8. Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Nukus, 2018. – 152 s.
9. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J.M.Spector, M.D.Merrill, J. van Merrienboer, & M.Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – P. 1017-1044.
10. Зимняя И.А. Педагогическая психология [Текст] / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
11. Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. – М.: Просвещение, 2010. – 224 с.
12. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
13. Реан А.А. Социальная педагогическая психология / А.А.Реан., Коломинский Я.Л. – СПб., 1999. – 32 с.
14. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: РСФСР. ПФА, 2004. 8- изд. – 180 с.
15. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997. – 415 b.
16. Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
17. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. –T., 2016. – 314 b.
18. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 488 b.
19. Цукерман Г.А. Совместная учебная деятельность как основа формирования умения учиться: автореф. дис. ... докт. психол. наук. – М., 1992. – 39 с.